BO‘LAJAK BASTAKOR VA KOMPOZITOR IJODIGA BIR NAZAR

Jumagul PARDAYEVA
Yunus Rajabiy nomidagi
O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti
San’atshunoslik (musiqashunoslik)
ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich talabasi
E-mail: jumagul2006.05.12@gmail.com
Tel: +998-94-874-12-05
Ilmiy rahbar: ***Barno SHAMSHIYEVA***
Yunus Rajabiy nomidagi
O‘zbek milliy musiqa san’ati institute
O‘zbek maqomi tarixi va nazariyasi
kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O’zbekistonda an’anaviy musiqa, xususan, maqom san’atining rivojlanishidagi muhim omillardan biri bo’lgan Yunus Rajabiy nomidagi O’zbek milliy musiqa san’ati institutining "Kompozitorlik, bastakorlik va umumiy fortepiano" kafedrasi faoliyatiga e’tibor qaratilgan. Kafedraning tashkil etilishi, talabalarning ta’lim jarayoni, maqom nazariyasining o’rganilishi, zamonaviy bastakorlarning ijodi va ularning maqom elementlaridan foydalanishi kabi masalalar yoritilgan. Maqolada, shuningdek, maqom kuylari, ritmik va lad tizimining zamonaviy musiqaga uyg’un tarzda singdirilishi, yangi shakllar va uslublar yaratilishi hamda institutning bu jarayondagi roli haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so’zlar: Yunus Rajabiy nomidagi O’zbek milliy musiqa san’ati instituti, “Kompozitorlik, bastakorlik va umumiy fortepiano” kafedrasi, maqom san’ati, bastakorlik, maqom elementlari, maqom kuylari, usul va lad tizimi.

Ma’lumki, 2020-yil O‘zbekistonda mamlakatning boy musiqiy merosini asrab-avaylash va rivojlantirishga qaratilgan Yunus Rajabiy nomidagi O’zbek milliy musiqa san’ati instituti ochildi. Bir yil o‘tgach, “Kompozitorlik, bastakorlik va umumiy fortepiano” kafedrasi tashkil etildi. Bu o‘zbek mumtoz musiqasi an'analarida ijod qiluvchi yangi avlod bastakorlarini tayyorlashda muhim qadam bo‘ldi desak mubolag’a bo’lmaydi.

Ayni paytda kafedrada 15 nafar talaba tahsil olmoqda. Boshqa yo‘nalishlar bilan bir qatorda ular shashmaqom asoslarini va o‘zbek xalq ijodini faol o‘rganmoqdalar. Bo‘lajak bastakor va kompozitorlarning amaliy ishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda: talabalar o‘tmishning buyuk ustalaridan meros bo‘lib qolgan ohanglar va usullar foydalangan holda o‘z asarlarini yaratib kelmoqdalar.

Yunus Rajabiy nomidagi O’zbek milliy musiqa san’ati institutida “Kompozitorlik, bastakorlik va umumiy fortepiano” kafedrasining ochilishi O‘zbekistonda an'anaviy musiqaga bo‘lgan qiziqishning ortib borayotganidan dalolat beradi. Bu, shuningdek, mamlakatning betakror madaniy merosini saqlash va rivojlantirishdagi muhim qadamdir.

Bastakorlik san’ati juda keng tushunchadir. Oddiy qilib aytganda, xalq musiqasi ham xalq tomonidan ommaviy tarzda yaratiladi va ijro etilib kelinadi. Demak, bu ham bastakorlik san’atning bir ko’rinishidir. Faqat ular xalqimizning hayoti, voqelik, marosim va udumlariga bog’liqligi bilan ajralib turadi. Bastakorlik ijodiyotining eng yirik va mukammal shakli maqomot tizimiga kiruvchi asarlardir. Bastakorlik amaliyotida shakllanib maqomot shakligacha rivojlangan janrlar, manbalarda amal, qavl, parda, nag’ma, ovoz, naqsh, peshrav, savt, cholzarb, kor, tarona kabi iboralarda tasvirlanib kelgan.[1.4b] O’zbek maqomlarining nazariyasiga oid hozirgacha o’rganilib kelinayotgan bir qator masalalarini keltirb o’tish mumkin;

-maqomlarning tovush tizimi;
-ularda kuy-ohang tuzilishining o’ziga xos xususiyatlari;
-lad tizimi- lad birliklari, lad tuzilmalari va lad jamlanmalari;
-maqomlarning shakllanish omillari;
-maqom shakllarining tarkibiy bo’linishlari va ularning funktsiyalari;
-maqomlarda lad va metro-ritmik mutanosiblik;
-maqomlarning muayyan janr va shakllari;
-maqomlarning tahliliy uslublari;
-maqom variantlarining qiyosiy tahlili. Musiqa inson qalbining eng nozik tuyg’ularini ifoda etadigan san’at turlaridan biridir. Har bir avlod o’ziga xos musiqiy yo’nalish va uslubga ega bo’lib, iste’dodli bastakor tomonidan yaratiladi.[1.924b] Bugungi yosh avlod orasida ham iste’dodli bo‘lajak bastakor va kompozitorlar yetishib chiqmoqda. Ularning ijodi zamonaviylik va milliy ohanglarni uyg’unlashtirgan holda yangi asarlarni dunyoga keltirmoqda. Mening bastakor va kompozitor tengdoshlarim, o’z sohasida izlanishlarini boshlab yuborgan. Ularning ijodida zamonaviy musiqa va milliy kuylar oqimlarning uyg’unligi yaqqol seziladi va kuy-qo’shiqlari, instrumental asarlari barchani o’ziga jalb qiladi. Har bir bastakor o’z asarlari orqali jamiyatga o’z hissasini qo’shadi. Mening zamondoshlarim, yani bo‘lajak bastakor va kompozitor tengdoshlarim ham ijodi orqali yoshlarning musiqaga bo’lgan qiziqishini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Maqom san’ati o’zbek milliy musiqa merosining ajralmas qismi bo’lib, undagi ohang va usullar zamonaviy bastakorlarning ijodida ham aks etmoqda. Ular an’anaviy maqom yo’llaridan ilhomlanib, zamonaviy musiqa asarlarida yangi uslublarni yaratmoqdalar. Maqomlar o’ziga xos usul, ohang va shaklga ega bo’lib, ular bastakorlar tomonidan turli janrlarda qo’llanilmoqda.

Bugungi bastakorlar maqom elementlarini - kuy tuzilmasi, usul, ladlarni o‘z ijodlarida ishlatmoqdalar. Masalan, an’anaviy maqom yo’llarining kuy tuzilmasi kompozitorlar yozgan asarlari kuyiga singdiriladi. Mutal Burhonovning “Tanovar”i maqom ohanglari bilan boyitilgan. Usullar qo‘llanilishiga misol keltiradigan bo‘lsak, Ravshan Yo’ldoshev, Baxtiyor Mavlonov singari kompozitorlar o’z simfonik va kamer asarlarida maqom usullarini qo’llaganlar. Usullar maqomlarda ritmik tuzilma bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bastakorlikda keng qo‘llanilib kelinmoqda. Oddiy, murakkab va aralash o’lchovlar - maqom musiqasida 5/8, 7/8 kabi murakkab o’lchovlar mavjud bo’lib, bu bastakorlik asarlarida ritmik rang-baranglikni ta’minlaydi. Bastakorlikda maqom usullarining ishlatilishi milliy musiqa an’analarining saqlanish va rivojlanishda muhim o’rin tutadi. Maqom kuyi, ritmik va lad tizimi zamonaviy musiqaga uyg’un tarzda singdirilib, kompozitorlar ijodida yangi shakllar va uslublar yaratishga imkon bermoqda.[3.8b] Bu an’anani bo‘lajak kompozitor va bastakorlar davom etmoqdalar, masalan 3-kurs talabasi Abrorbek Abdullayev o‘zining “Torli kvartet uchun uchta miniatyura”sida ko‘rishimiz mumkin.

1-qism maqom usullaridan olingan. Asar, Soqiynomayi safti kalon maqomi mavzusida yozilgan. “Biz bu asarda maqom usullaridan foydalanganligini qayerdan bilishimiz mumkin? Asosan bu asar maqom ritmik suratlari va usullaridan olingan. Violanchel va Altda ijro etilayotgan asosiy usul, ya’ni maqom usullaridan foydalangan holda, usulga va ritmik suratga asoslanib asar kuyini yozdim va o’rta qismida 10/8 o’lchoda davom ettirdim. Bu o‘z navbatida asarni tayyorlov qismi desa ham bo’ladi”- deya ta’kidlab o’tdi Abror Abdullayev.

I.



2- qism asosiy jihati bu - Soqiynomayi safti kalon maqomi mavzusidan olingan. 2- qismini ohirigacha shu maqom usullari ketadi. Masalan, “Keltursa yuz baloni o’shal, bevafo manga” xuddi shu mavzuda Yevropa cholg‘ulariga maqom kuyiga moshlashtirib yozilgan. Bu juda katta yutuq desak mubolag’a bo’lmaydi.



3-qism 6/8 va boshqa o’lchovlaridan foydalanilgan. Bu qism qaysidir maqomga asoslab yozilmagan, shunchaki maqom ritmikasidan foydalanilgan.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. Jabborov. O'zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari.- T., 2004
2. R. Yunusov. Faxriddin Sodiqovning ijodiy merosi hozirgi zamon bastakorlik jarayoni kesimida.//Musiqa ijodiyoti masalalari. I to'plam.- T., 1997.
3. T. G'ofurbekov. Saylanma (Bastakorlik ijodiyoti tarixidan).- T., 2009.
4. T. G'afurbekov. O'zbek bastakorlik ijodiyoti mualliflik masalalariga doir. // Musiqa ijodiyoti masalalari. 2 to'plam. – T., 2001.